

RESEARCH ARTICLE

Güntekin's Novel "The Green Night" In The Uzbek Language

Khayrulla Khamidov

Professor, DSc. Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 140-144

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article discusses the novel "Green Night" by the renowned Turkish writer Rashod Nuri Güntekin and its translation into Uzbek, and also offers some recommendations regarding Uzbek translation.

KEY WORDS

Novel, "Green Night," literary translation, translation of proverbs and phraseological units.

INTRODUCTION

Rashod Nuri Güntekin's 1928 year published novel "Yashil kecha" (The Green Night) is a work of XX century literature. The novel is a reflection of the life of the Turkish people in the Ottoman Empire. The novel is a reflection of the life of the Turkish people in the Ottoman Empire. The novel is a reflection of the life of the Turkish people in the Ottoman Empire.

Nima uchun asar "Yeşil Gece" ("Yashil kecha") deb nomlangan?

Roman nomi ramziy ma'noga ega va u asarning asosiy mavzusi bilan chambarchas bog'liq. Gap shundaki, asar nomi tarkibidagi "yashil" so'zi, rang – islom dini ramzi bo'lsa (masalan, asarda maqbaralar va masjidlar yashil chiroqlar bilan yoritilganligi tez-tez tilga olinadi), "kecha" so'zi – zulmat, jaholat va qoloqlikni ramziy ifodalaydi.

Rashod Nuri ushbu romani orqali "Tariqatlar hanuz yashamoqda, inqilobiy islohotlar Onadoluda to'liq o'rnatilgan bo'lmadi, biz idealist o'qituvchilar va ziyolilarga muhtojmiz" deb xitob qilganga o'xshaydi. Shu sababli asar o'z davrining eng jiddiy, eng ideologik romani sifatida e'tirof etib kelinmoqda. "Yashil kecha" romani mavzusi va g'oyasiga ko'ra Resat Nurining "Choliquishi" asarida aks etgan romantizmdan ancha uzoq, rasmiy ideologiyaga esa ancha yaqin turadi. Tadqiqotchilar ushbu asarni obrazli qilib "ma'rifat manifesti" deyishadi.

Turkiya Respublikasi tashkil etilganidan keyin ilk

yillarda amalga oshirilgan inqilobiy islohotlarning Onadoluda qiyinchiliklar bilan amalga oshirilganligi, sekulyarizm va jaholat, qoloqlik orasidagi to'qnashuvlar, boshqacha aytganda, sekulyarizm va qoloqlik, ziyolilik–johillik orasidagi ziddiyat-to'qnashuvlar, ayol huquqlari va qiz bolalarning ta'lim olishi, tariqatlar va din peshvolarining jamiyatni tazyiq ostida tutishi, Onadoludagi respublika inqiloblari qanchalik qiyin kechishi bilan bog'liq voqealar asarning asosiy mavzularini tashkil etadi. Dinni suiiste'mol qilish orqali jamiyatni zulmatga tortuvchi kuchlarga qarshi kurash uning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Romanning bosh qahramoni idealist, boshlang'ich maktab o'qituvchisi, madrasa ta'limini olgan Shahin (Ali Shahin) afandi bo'lib, u Turkiya Respublikasining dastlabki yillarida poytaxtdan ancha uzoq, qoloq bir Onadolu (Ege mintaqasi)da joylashgan Sariova qasaba (shaharcha)siga ishga yuboriladi.

Ali Shahin qasabaga kelgach, u yerda dinning siyosiy va shaxsiy manfaatlar uchun buzib qo'llanilayotganini ko'rib, o'qituvchilar maktabiga o'tadi. "Ali Shahin zamonaviy ta'lim tarafdori sifatida u yerdagi "qoloq kishilar ongidagi eskilik sarqitlarini sidirib tashlab, maktab o'quvchilarini yangi, ilg'or, zamonaviy hayotga yetaklash uchun kurash boshlaydi, o'z atrofidagi xalqparvar kishilar bilan birgalikda mansabparastlar, johil kishilar va dindorlar qarshiligini sindirishga erishadi" – deyiladi roman tarjimasining anno-

tatsiyasida¹.

* * *

Ali Şahin – ma’rifatparvar, sekulyar², respublikachi muallim obrazidir. U shaharchaga kelishi bilan qiz bolalarning maktabga bormasligini, madrasalarning hali ham kuchli ekanligini, shayxlar xalqqa zulm qilayotganini ko’radi. Xususan, shaharchadagi eng qudratli tariqati – Yashil sallalilar (romanga nom qilib qo’yilgan “Yashil Kecha” tariqati) ham iqtisodiy, ham ma’naviy jihatdan xalqni o’z nazorati ostida ushlab turadi. Shayx Ilyos afandi va uning odamlari Ali Şahinni respublikaning “kofir” muallimi deb bilishadi va unga qarshi shafqatsiz kurash boshlaydilar.

Ali Şahin qat’iyat bilan ishlaydi, shaharchaning ilg’or kishilarini (shifokor, dorixonachi, bir necha ziyoli) yoniga olib, bir jabha tuzadi. U qizlarni o’qitish, savodsiz avom xalqning ko’zini ochish va tariqat mansublarining soxta karomatlarini fosh qilish uchun omonsiz kurash olib boradi. Shaharcha “Yashil sallalilar” degan tariqat (Yeşil Gece) shayxlarining qo’li ostidagi zulmatga botgan, xalqi johil, qiz bolalar maktabga bormaydigan, atrofda xurofot hukmron bo’lgan bir makondir. Tariqat mansublari u yerda tuhmat, tahdid va zaharlash kabi yo’llar bilan Ali Shahinga qarshi turadilar. Ular muallimning xotini Shukronni zaharlaydilar.

Asarning oxirida Ali Şahin tariqatni yengib, shaharchada maktab va xalq uyini ochishga muvaffaq bo’ladi. U yangi vazifaga tayinlanadi, ammo unga g’alaba qimmatga tushadi, chunki dindorlar juda kuchli edi. Shayx Ilyos va uning odamlari tuhmat, tahdid va boshqa turli yo’llarga murojaat qiladilar. Ali Şahinni qo’llab quvvatlovchisi – yosh va chiroyli xotini Shukron ham bu kurashning qurboni bo’ladi. Bu voqea Ali Şahinni larzaga soladi, lekin u baribir taslim bo’lmaydi.

Romanning eng ta’sirli syujetlaridan biri – tariqat tomonidan har yili uyushtiriladigan “Yeşil Gece” marosimi edi. O’sha kecha shayxlar soxta karomatlar namoyish etib, xalqni gipnoz qilishadi, ayol-erkak qorishiq ibodatlar o’tkaziladi. Ali Şahin bu marosimga bostirib kirib, ularning haqiqiy yuzini ochib tashlaydi. Oxir-oqibat Ali Şahin shaharchadagi qarshilikni sindiradi, tariqatni yakson qiladi, maktab va xalq ta’limi uyini ochadi. Ammo g’alaba unga qimmatga tushadi: sevimli xotini Shukronni yo’qotadi, o’zi ham yaralanadi. Roman uning baribir yengilmasligi va boshqa vazifaga tayinlanishi bilan yakunlanadi. Ali Şahin Respublikaning idealist o’qituvchi tipining ramzi bo’lib qoladi.

“Yeşil Gece” (“Yashil kecha”) romani taniqli tarjimon Mirvali A’zam tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilinib, 1977 yil Toshkentda chop etilgan³. O’zbekcha tarjima matnining roman asliyatiga yonma-yon qo’yilib boshlangan tahlillar asarning ona tilimizga ishonchli tarjima qilingani haqida ilk tasavvurni uyg’otadi. Albatta, roman tarjimasini har tomonlama baholash, asliyat uslubining tarjimada to’liq saqlangani va tarjimaning badiiy saviyasi haqida ishonchli ilmiy xulosa chiqarish uchun alohida ilmiy tadqiqotni amalga oshirish kerak bo’ladi. Ana shu tadqiqot uchun debocha mohiyatiga ega bo’lgan ushbu maqolada esa “Yashil kecha” romani va uning tarjimasidan hech qanday maxsus tanlovsiz, duch kelgan sahifadan bir necha parcha olib, ularni tarjimashunoslikning turli nuqtayi nazarlaridan tahlil qilishga harakat qilamiz.

“Kim var orada? diye bağırdı.

Titrek bir el, kapının kenarına iki defa tereddütle vurdu ve içeriye eski redingotlu, sarı meşin potinli, mavi atlas gömlekli yirmi beş, otuz yaşlarında zayıf bir adam girdi. Hafif çiçekbozuğu bir yüzü, ince, kara bir sakalı vardı. Kapanmış bir sıraca yarası boynunu hafifçe sağa çarpıtmıştı. Redingotunun gevşemiş düğmesini ilikleyip fesini düzelttikten sonra yerden temenna etti; kapının yanında durdu” [YG, 2].

Parcha o’zbek tiliga quyidagicha o’girilgan:

“U yerda kim bor? – deya bağırdı.

Titroq bir qo’l eshikning chetini ikki da’fa taraddud-la taqillatdi va ichkariga eski kamzulli, sariq charm botinkali, moviy atlas ko’ylakli yigirma besh, o’ttiz yoshlar chamasidagi zaif bir odam kirdi. Bilinar-bilinmas cho’tir yuzli bu kimsaning ingichka qora soqoli bor edi. Uzoq davom etgan shirincha yarasi bo’ynini xiyol-xiyol o’ng tarafga burib qo’ygani edi. U kamzulining yechilib ketgan tugmasini qadab fesini tuzatgandan keyin turgan joyidan tamanno etdi; eshikning yoniga o’tdi [YaK, 4].

Turkcha matn parchasidagi “*kapının kenarına iki defa tereddütle vurdu*” sodda gapi “*eshikning chetini ikki da’fa taraddud-la taqillatdi*” shaklida tushunarli, ravon tarjima qilingan. Chunki turk tilidagi “tereddüt” so’zi “ikkilanish, shubhalanish, dovdirab o’zini yo’qotish” ma’nolarini ifodalaydi.

¹ Гунтекин Р.Т. Яшил кеча. Роман. Туркчадан Мирвали Аъзамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977 (С) – 248 б.

² Sekulyar – dunyoviylik tarafdori, din va davlatning alohida ekanligi tarafdori.

³ Гунтекин Р.Т. Яшил кеча. Роман. Туркчадан Мирвали Аъзамов тарж. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977 (С) – 248 б.

O'zbek tilining izohli lug'atida ham "Taraddud" so'ziga shunga o'xshash izoh berilgan: "biror qarorga kelolmay turish, ikkilanish; qat'iyatsizlik va shunday holatda surilgan o'y, fikr-xayol, tashvish, mulohaza, biror ishni, maqsadni amalga oshirish uchun ko'riladigan tayyorgarlik" (*Imtihon taraddudi. Safar taraddudi kabi*). Shunga qaramay, tarjima matnida nimadir xiralashganday. Agar gap "Kimdir titragan qo'li bilan qat'iyatsizlik-la eshikni ikki marta taqillatdi" deb berilsa jumla yanada tiniqlashgan bo'lar edi.

Asliyatdagi "mavi atlas gömlekli yirmi beş, otuz yaşlarında zayıf bir adam" murakkab birikmasi ham "moviy atlas ko'ylakli yigirma besh, o'ttiz yoshlar chamasidagi zaif bir odam" deb tarjima qilingan. Turkcha birikma tarkibidagi "atlas" so'zini "ipak" deb bergan ma'qul edi. Chunki, ushbu so'z turkchada hech kimning e'tiborini tortmaydi, biroq o'zbeklarda erkak kishining "atlas ko'ylak" kiyishi odatiy hol emas. Yoki turkcha "zayıf bir adam" birikmasi ham so'zma-so'z "zaif bir odam" ag'darib qo'yilgan. Holbuki, turk tilida "zayıf" so'zi "ozg'in" ma'nosida qo'llaniladi (ozg'in bir kishi). Bu yerda tarjimon "soxta ekvivalent"ga duch kelgan.

Turk tilida "ince, kara sakal" deganda, "echki soqol", "taka soqol" tushuniladi va uni "ingichka soqol" deb o'g'irish unchalik ma'qul ko'rinmaydi. Yoki "Kapanmış bir sıraca yarasi" degani ancha ilgari chiqib, keyin "bitgan yara"dir. Uni tarjimon "Uzoq davom etgan shirincha yarasi" deb noto'g'ri o'g'irgan.

Shuningdek, turkcha "yerden temenna etti" birikmasining ma'nosi "bir kishiga yuqori darajada hurmat ko'rsatib, unga ta'zim bajo keltirish" demakdir. Bu yerda insonga xos sharqona kamtarlik biroz mubolag'a (giperbola) bilan ishlatilgan. Tarjimon ushbu fe'l shaklini "tamanno etdi" deb o'g'irgan va sahifa ostida "tamanno etmoq – salomlashishning bir turi. Ayrim sharq mamlakatlarida salomlashganda qo'l labga, keyin peshanaga tekkizib qo'yiladi" tarzida izoh ham bergan⁴. Holbuki uni soddagina qilib "egilib ta'zim bajo keltirdi" tarzida berish mumkin edi. Chunki, o'zbek tilida "tamanno" so'zi "noz-ishva, karashma, noz-karashmali harakat" ma'nosida qo'llaniladi (O'TIL, 3-jild).

Yuqoridagi tahlil natijasidan kelib chiqqan holda romandan keltirilgan parchani ona tilimizda quyidagicha talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

"Kim bor u yerda? – deb baqirdi.

Kimdir titragan qo'li bilan qat'iyatsizlik-la eshikni ikki

marta taqillatdi. Ichkariga eski kamzulli, sariq charm bo'tinkali, havorang ipak ko'ylakkiygan yigirma besh, o'ttiz yoshlardagi ozg'in bir odam kirdi. Suvchechagining bilinar-bilinmas izi qolgan echki soqolli bu odamning bo'yni yuzidagi shirincha yarasi asorati bo'lsa kerak xiyol o'ng tomonga tortilib qolgan edi. U kamzulinig osilib qolgan tugmasini qadab fesini tuzatgancha turgan joyida yerga egilib ta'zim bajo keltirgach, eshikning yonida turdi.

Romanda muqaddas joyga ketgan yong'in o'chirilgandan keyin aholi oh-voh solib, yig'lab orqasiga qaytgan syujetda shunday bir parcha berilgan: "Kekimi Baba" türbesi bir nevi enbiya tarihi müzesiydi. Orada kocaman bir kemik vardı ki, Yunus Peygamberi yutan balığa, bir sopa vardı ki Hazret-i Musa'ya ait olduğu söylenirdi. Yine orada Hazret-i Nuh'un gemisinden kopmuş bir tahta parçasıyla Eyüp Peygamberin fukaralığı zamanında üstünde yattığı kerevet görü-lüyordu [YaK,140].

Parcha M.A'zam tomonidan quyidagicha tarjima qilingan: "Kalomi Bobo" maqbarasi bir navi avliyolar tarixi muzeyi edi. Bu yerda kattakon bir suyak bor ediki, Yunus payg'ambarni yutgan baliqqa tegishli; bir hassa bor ediki, Hazrati Musoga tegishli, deb aytilardi. Yana u yerda Hazrati Nuhning kemasidan chatnab ketgan bir taxta parchasi bilan Ayyub payg'ambarning fuqaroligi zamonida yotib yurgan karavotini ham ko'rish mumkin edi [YaK,160].

Tarjima ishonchli, payg'ambarlarning ismlari to'g'ri berilgan. Faqat "Kekimi Baba Türbesi" birikmasi ("Duduq Bobo türbesi") nimagadir "Kalomi Bobo" maqbarasi" deb berilgan. Uni "Kekeme Bobo türbesi" deb, yoki turkcha jumladagi "bir nevi" birikmasini "qaysidir ma'noda", "ma'lum ma'noda" deb o'g'irish mumkin edi. Biroq tarjimon uni so'zma-so'z "bir navi" deb berib qo'yaqolgan. O'zbek tilidagi "Bir nav(i)" so'zining ma'nosi: 1) yaxshi ham emas, yomon ham emas, o'rtamiyona. 2) durust, tuzuk, yaxshi" [O'TIL].

Shundan kelib chiqilsa, parchani quyidagicha o'g'irish maqsadga muvofiq edi: "Kekeme Bobo" maqbarasi ma'lum ma'noda avliyo-yu anbiyolar tarixi muzeyi edi. U yerda ulkan bir suyak bor ediki, uning Yunus payg'ambarni yutgan baliqqa; bir tayoq bor ediki, Hazrati Musoga tegishli ekani naql qilinardi. Shuningdek, u yerda Hazrati Nuh kemasidan uchib tushgan bir taxta parchasi va Ayyub payg'ambar yashagan davrda yotgan yotog'ini ham ko'rish mumkin edi.

* * *

⁴ Turk tilining izohli lug'atida "temenna" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: "Temennâ" (ar. esk.) – Oldin sal yerga egilib, keyin qaddini

ko'targancha o'ng qo'lni boshga yaqinlashtirib beriladigan salom" (TS).

Badiiy asardagi maqol va iboralarning tarjimada berilishi masalasi fanning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. Inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan va adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi maqol va frazeologik birliklar ma'no xususiyatlari va murakkabliklari bilan tarjimani qiyinlashtiruvchi omillardan sanalib, ularning tarjima jarayonida ishonchli ekvivalent va muqobillar vositasida berilmasligi asliyatda muallif ifodalagan fikrning tarjimada anglashilmay qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Buni romandan olingan quyidagi parcha misolida ko'rib chiqamiz:

"Çamura saplanır gibi saplandık kaldık... **"Sıçan giremediği deliğe bir de kuyruğuna kabak bağlar"** derler... Burada bir de evlenmek **eşekliğini yaptık...** **Çoluğa, çocuğa karıştık**, bununla beraber doğrusunu istersen buradan kaçmak için pek de o kadar fazla uğraşmadım. Ben, çok felâket görmüş bedbin bir adamım... Başka yerlerin ve başka insanların Sarıova ahalisinden daha **şikâr matahlar** olduğuna kâni değilim. Malûm ya **eşek düğüne bile gitse ya su çeker, ya odun...** Hâsılı, Sarıova ile başka yerler arasındaki fark, yol masrafına ve zahmetine değmezdi [YG,155]

Rashod Nuri asarni yozishda turk tilinin boy frazeologiya xazinasidan samarali foydalangan bo'lsa, tarjimon ham bunday birliklarning ishonchli muqobillarini topib o'rniga qo'yishga harakat qilgan. Buning yuqoridagi parchada ajratib ko'rsatilgan maqol va iboralar tarjimasi misolida ko'rishimiz mumkin: "Loyga botib qolganday, botib qoldik... **"Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga"**, deganlaridek, shuncha qilsam ham chiqolmadik... Bu orada deng, **ahmoqlik qilib**, uylanib ham qo'ydik... **Bola-chaqali bo'lib qoldik**. Keyinroq borib, to'g'risini aytsam, bu yerdan ketishni istamadim ham, harakat qilmadim ham... Innaykeyin, men ko'p falokatlarni ko'rgan badbin bir odamman... Boshqa yerlarning va boshqa insonlarning Sarıova aholisidan ko'ra **yaxshi o'lja** topib hayot kechirishiga ishonchim komil emas. Ma'lumki, agar **eshak to'yga borib qolguday bo'lsa, yo suv tashiydi, yo o'tin...** Qisqasi, Sarıova bilan boshqa yerlar orasidagi farq, yo'l xarajatiga va zahmatiga yetmasdi" [YaK,177].

Ko'rinib turganidek, kichik bir asliyat parchasida adib ikki maqol va bir necha frazeologizm qo'llangan:

1. **"Sıçan giremediği deliğe bir de kuyruğuna kabak bağlar"**⁵ maqoli ona tilimizdagi **"Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga"** muqobili vositasida to'g'ri va ishonchli tarjima qilingan.

2. **"Eşek düğüne bile gitse, ya su çeker, ya odun..."** maqoli o'zbek tilida ekvivalenti bo'lmagani bois **"eshak to'yga borib qolguday bo'lsa, yo suv tashiydi, yo o'tin..."** tarzida so'zma-so'z o'girilgan bo'lsa-da ushbu usul o'zini to'liq oqlagan, deyish mumkin⁶.

Parchadagi frazeologizmlarga kelinsa, ulardan birinchisi **"eşeklik yapmak"** iborasi bo'lib, u o'zbekcha matnda **"ahmoqlik qilmoq"** erkin birikmasi orqali, **"çoluğa, çocuğa karışmak"** birikmasi **"bola-chaqali bo'lib qolmoq"** shaklida berilgan va uni shartli ravishda takroriy frazeologik birlik (dublyat frazeologizm) deyish mumkin, chunki bu yerda ibora ikki yaqin ma'noli so'zning takrorlanishi orqali hosil bo'lgan (bola + chaqa ≈ bola).

Asliyat jumlasida kelgan **"Şikâr matah"** (şikâr-ı matâh – xalq tilida şikar matah shaklida ham uchraydi) iborasi "orzu qilingan matoh", ya'ni mukammal narsa", "zo'r o'lja" ma'nosiga ega. Hozirgi turk tilida og'zaki nutqda ushbu ibora eskirgan hisoblanib, uning o'rniga **"Şahane!", "Harika!", "Süper!"** so'zlari qo'llaniladi. O'zbek tilida esa "zo'r narsa!", "ajoyib!", "...dan afzal" so'zlari ishlatiladi. Shu nuqtayi nazardan, tarjimada iboraning manosi qisman anlashilib turgan bo'lsa-da, u ishtirok etgan **"Başka yerlerin ve başka insanların Sarıova ahalisinden daha şikâr matahlar olduğuna kâni değilim"** jumlası **"Boshqa yerlarning va boshqa insonlarning Sarıova aholisidan ko'ra yaxshi o'lja topib hayot kechirishiga ishonchim komil emas"** tarzida sal bo'rttirib (bu yerda "yaxshi o'lja topib hayot kechirish" – birikmasi ortiqcha) talqin qilingan. Uni **"Boshqa yerlar va boshqa odamlarning Sarıova aholisidan afzal ekanliklariga ishonmayman"** shaklida o'girish maqsadga muvofiq edi.

Parchaning oxirgi **"Hâsılı, Sarıova ile başka yerler arasındaki fark, yol masrafına ve zahmetine değmezdi"**

⁵ Turkcha maqolning so'zma-so'z tarjimasi **"Sichqon o'zi kavakka kirolmaydi-yu dumiga qovoq bo'g'laydi"** ekanligini ta'kidlash lozim.

⁶ Shu o'rinda bir fikrga e'tibor qaratish lozim: "Turkcha maqol va iboralarda ko'p hollarda eshakning qaysar, befarosat hayvon ekanligi ta'kidlansa da, ayrimlarida bu hayvonning turkiy xalqlarning kundalik turmushida foydali,

har qanday shartga, og'ir mehnatga bardoshli (**"Eşegi düğüne çağırmışlar: «Ya odun eksik, ya su» – demiş»** (**Eshakni to'yga chaqirishibdi, shunda u «Yo o'tin kam, yo – suv» – debdi**) chorasiz, bir umr mehnat qilishga mahkum jonivor (**Yük altında eşek anırmaz –Yük ostida eshak hangramas**) ekanligiga urg'u beriladi" [TFM,71].

jumlasi ham bir qarashda ishonarli, ravon tuyiladi (*Qisqasi, Sariova bilan boshqa yerlar orasidagi farq, yo'l xarajatiga va zahmatiga yetmasdi*"), biroq sinchiklab qaralsa birgina so'zning noto'g'ri talqini butun boshli jumlaning umumiy mazmuniga soya solib turibdi: bu – "*degmezd*" – "*arzimad*" so'zidir. Uni quyidagicha o'girish maqsadga muvofiq edi: "*Xullas kalom, Sariova bilan boshqa yerlar orasidagi farq, yo'l azobi va qilingan xarajatlarga arzimad*".

Umuman olganda, roman alohida olinib, uning tarjimasi haqida keng miqyosda monografik tadqiqot olib borishga arziydi. Bir maqola doirasida esa asar va tarjimasi xususida bir yoqlama mulohaza bildirish mumkin. Demak asar yuzasidan adabiyotshunoslik va uning o'girmasi ustida tarjimashunoslik tadqiqoti olib borish dolzarb hisoblanadi. Zero, butun adabiy faoliyati, salohiyati, san'atini fidokor, millatsevar turk muallimlari (Farida muallima – "*Choliqushi*", Ali Shohin afandi – "*Yashil kecha*" va boshqa romanlar qahramonlari)ning og'ir, mas'uliyatli va ayni zamonda o'ta yuksak, ibratli va sharaflı mehnatlarini ulug'lashga bag'ishlagan atoqli turk adibi Rashod Nuri Guntekin asarlarini asliyatda o'rganish va ularning ona tilimizda nashr etilgan o'girmalarini bugungi tarjimashunoslikning turli nuqtayi nazarlaridan ilmiy tadqiq etish turkshunoslik va amaliyotdan ancha orqada qolib kelayotgan tarjima nazariyasi va tanqidi sohasini yanada rivojlantirish yo'lida boshlaganimiz xayrli ishlardan biri bo'ladi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

[TFM] – Хамидов Х.Турк фразеологияси масалалари. / Монография. – Тошкент: "Bayoz", 2019. – 160 б.

[YG] – Güntekin R.N. Yeşil Gece. Roman.

[YaK] – Гунтекин Р.Т. Яшил кеча. Роман. Туркчадан Мирвали Аъзамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977 (C) – 248 б.

[Ç] – Güntekin R.N. Çalıkuşu. Roman.

[TS] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. 1.-2.C. – Ankara: 1998.

[BÖTS] – Büyük Özbekçe–Türkçe Sözlük, Yayınevi. – Ankara: 2025.